

## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI LOYIHASINING USLUBIY-NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

**Mo‘yдинов Озодбек Олимжонович,**  
ADU Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi.  
[muydinovozodbek3@gmail.com](mailto:muydinovozodbek3@gmail.com)  
+998(91)498-9555 Telegramm: @Ozodbek9555

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jahon amaliyotida sodir bo`lgan Davlat-xususiy sheriklik loyihasi jarayonlari, davlat boshqaruvi organi va xususiy sektor o‘rtasida huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan munosabatlari o‘rganildi.

**Kalit so’zlar:** Davlat-xususiy sheriklik, Davlat, konsession, investitsiya, loyiha, tizim, xususiy tadbirkorlik, infratuzilma.

**Abstract:** In this article, the processes of the Public-Private Partnership project, which took place in the world practice, the relations between the public administration body and the private sector from a legal and economic point of view were studied.

**Keywords:** Public-private partnership, State, concession, investment, project, system, private enterprise, infrastructure.

**KIRISH.** Davlat-xususiy sheriklik tizimi (DXSH) - biror mamlakatga yoki ushbu mamlakat tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida xizmat ko‘rsatuvchi xususiy sektor uchun uzoq muddatli shartnoma bo‘lib, xususiy sektor o‘zining moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslaridan foydalanish orqali loyihami ilgari suruvchi kuch hisoblanadi. Davlat sektori esa asosiy loyiha aktivlari (misol uchun, yer uchastkalari)ni taqdim etadi va yuridik hamda shartnoma asosida uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi, loyiha tayyorgarlikni moliyalashtiradi.

**Mavzuning dolzarbliji;** Davlat va xususiy sektor hamkorligi” ingliz tilidan “PPP” – Public-Private Partnership deb atama sifatida ishlatalib davlat va biznesning o‘zaro hamkorlik munosabatlari ma’nosida yoritib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbariyati mustaqilligimizning dastlabki yillardan tadbirkorlikka keng yo‘l ochib kelmoqda. Tadbirkorlikni rivojlanтирish o‘z navbatida qo‘shimcha ish o‘rnilarini yaratib fuqoralarning turmush darajasiga ijobjiy tasir o‘tkazadi. Tadbirkorlik subektlariga teng sharoitlar va imtiyozlar yaratilib, an'anaviy tadbirkorlikdan tashqari yangi tadbirkorlik loyihalari yo‘lga qo‘yilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivijlanishiga turtki bo‘ladi. Shu sabali, tadbirkorlikning huquq va majburiyatlarini qonuniy asoslarini yaratib berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Iqtisodiyotda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mulk ulushida xususiy mulkning ustuvorligi aholini ijtimoiy himoya qilishning ayrim sohalarida, inovatsion faoliyatni rivojlanтирish, tarmoqlar va sohalar xavfsizligini ta’minlash kabi bir qator tarmoqlarda davlat va xususiy mulkning hamkorligini talab etiladi. Shu jarayonda davlat xususiy sherikligi yuzaga keladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Bugungi kunda davlat va xususiy sektor hamkorligining dolzarbliji, hamiyati, modellari, shakllari va mexanizmlari bir qator olimlarning olib borgan tadqiqotlarida namoyon bo‘lmoqda. Olimlardan V.G.Varnavskiy, Yu.V.Zvorkina, Jessada

Sresakoolchai, Sakdirat Kaewunruen, M.N.Afanasyeva, V.V.Maksimov, S.Yu.Glaziev, M.A.Deryabina, V.V.Yevenko, V.Yu.Soldatenko, O.N.Xomyachenko, M.V.Vilisov, G'.A.Samatov, M.B.Xamidulin, R.I.Yaushev, T.U.Qodirov, M.N.Ravshanov, S.E.Elmirzaev, U.I.Djumaniyazov, A.Beliskaya, N.V.Reznichenko, A.E.Mengnarov, S.N.Xashimova, A.A.Abdikarimova va boshqalarning ilmiy ishlarida bu borada atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

Ularning ayrimlarini “davlat va xususiy sektor hamkorligi” atamasiga bergan ta’riflari, ushbu mavzu yuzasidan yondashuvlar to‘g‘risidagi qarashlarni quyidagicha ifodalash mumkin. Davlat-xususiy sherikchiligi (DXSH) tushunchasiga bergan iqtisodchi olimlarning ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

№	DXSH haqida	Mualliflar FISH
1	“DXSH Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida DXShgi mamlakat va hududiy miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning samarali vositasi bo‘lib, davlat va mahalliy boshqaruvi organlari tomonidan nazoratni ushlab turish va xususiy sektor bilan samarli iqtisodiy hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan investitsion loyihalarga mablag‘lar jalb qilish va amalga oshirish vositasi hisoblanadi. DXSh asosidagi investitsion loyihalarda xususiy sektor davlat tomonidan belgilangan shartlar va talablar asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish vazifalarini amalga oshiradi”	S.E.Elmirzaev
2	“DXSH – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatiga molik ob’ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan tom ma’nodagi o‘zaro manfaatli aloqalaridir.”	U.I.Djumaniyazov
3	“Davlat-xususiy sektor hamkorligi-davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi ob’ektlarga nisbatan o‘zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlar o‘rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi”	A. Beliskaya
4	DXSh - bu davlat boshqaruvi organi va xususiy sektor o‘rtasida maxsus boshqaruvi kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan, davlat infratuzilmasini yaratish va unga	Reznichenko N.V.

	<p>asoslangan xizmatlarni ko'rsatish maqsadida taqdim etilgan uzoq muddatli o'zaro manfaatli shartnomadir.</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• davlat va xususiy sektorlarning moddiy va nomoddiy resurslaridan foydalaniladi;</li><li>• xatarlar, javobgarlik, huquq va imtiyozlar davlat va xususiy sektor o'rtasida taqsimlanadi;</li><li>• natijaga qo'yiladigan talablar davlat tomonidan belgilanadi.</li></ul>	
5	Davlat-xususiy sheriklik - bu davlat va xususiy sektoring davlat va kommunal mulk ob'ektlariga, shuningdek, ijtimoiy va ma'muriy organlar, muassasalar va korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan va ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan o'zaro ta'sirining qonuniy ravishda mustahkamlangan shakli. iqtisodiy faoliyatning keng doirasidagi loyihami	Varnavskiy V.G
6	DXSh (davlat-xususiy sheriklik) temir yo'l loyihasi kabi yuqori boshlang'ich kapitalni talab qiladigan har qanday investitsiyalarda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda DXSh o'zining afzallikkari tufayli mashhurlikka erishdi. Hukumat nuqtai nazaridan, DXSh moliyaviy qiymatni yaratish va operatsion xavfni xususiy biznesga taqsimlash uchun ishlatalishi mumkin.	Jessada Sresakoolchai, Sakdirat Kaewunruen
7	"Davlat va xususiy sektor hamkorligi – bu ko'p qirrali muammo bo'lib, u o'z ichiga davlat va xususiy investorlarning roli va funksiyalarini aniq belgilashni, tomonlar o'zaro harakatlarining xusuiylatlari va tamoyillarini, hamkorlik jarayonlarini uning amalga oshish davrining barcha bosqichlarida institusional ravishda tartibga solib turishni qamrab oladi"	V.V. Maksimov
8	DXSh bu – Davlat va muayyan sektor tomonidan davlat infratuzilma loyihamini amalga oshirishda yoki modernizatsiya qilish uchun ikki tomonlama tuzilgan aniq muddatli shartnomadir.	A.E.Mengnarov
9	Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik asosining mavjudligi jamiyat va iqtisodiyotimiz uchun juda muhim bo'lib, DXSH sohasiga qonuniy asosni yaratdi, bu esa o'z o'rinda respublikaga investorlar faolligini va ishonchini albatta oshirishga, xususiy sektoring moliyaviy va boshqa resurslarini jalb qilishiga olib keladi.	S.N.Xashimova A.A.Abdikarimova

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada induktsiya va deduktsiya, tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanishga harakat qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Olimlar va tadqiqotchilarning DXSh boyicha fikrlaridan tashqari, konsession loyihalarning iqtisodiy va byudjet samaradorligi muammolari

uslubiy qayta ishlanishga kam e'tibor berilmoqda. Tadqiqotda asosan konsessiyalarning iqtisodiy nazariyasi va xo'jalik amaliyotining majmuaviy tahliliga e'tibor qaratilgan. Tabiiyki, bunda davlat va xususiy sektor hamkorligining zamonaviy nazariyasida konsession siyosatning nazariy asoslarini qayta ishlashga keng o'rinn berilgan. Mazkur masala yechimining zarurligi shu bilan asoslaniladi-ki, ijtimoiy hamkorlik, davlat tomonidan tartibga solish, aralash iqtisodiyot kabi masalalar bo'yicha ilmiy ishlar sonining ko'pligiga qaramasdan, konsessiya va unda yuzaga keluvchi davlat va xususiy sektoring xo'jalik munosabatlari muammosi uzoq vaqt davomida tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari soyasida qolib ketgan hamda mustaqil ravishda o'rganilmagan.

Shu o'rinda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoishlar Qonunchilik palatasi tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktyabrdagi PQ-3980-sonli "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 13 dekabrdagi 1009-sonli qarori;

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik loyihibalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5138-sonli farmoni;

2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi"dagi qonun ma'qullangan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli "Davlat-xususiy sheriklik loyihibalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risi"dagi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 7 iyundagi qarori;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi Qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida"gi 2021 yil 22 yanvar O'RQ-669-son Qonuni;

Vazirlar Mahkamasining 02.08.2022 yildagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 426-son qarori qarori ayni muddaodir.

Bozor mexanizmlarining rivojlanib borishi natijasida davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanib boradi. Bunday iqtisodiy munosabatlarning rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi bir ko'rinishi, bu davlat va xususiy tarmoqlar sheriklik munosabatlaridir. Davlat xususiy sheriklikning asosiy vazifasi O'zbekistonning barqaror ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi uchun davlat va xususiy sheriklikning samarali o'zaro harakatlanishi uchun sharoit yaratishi hamda

xususiy sektor resurslaridan umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishda foydalanish tushuniladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy va eng samarali yo‘nalishlaridan biri davlat-xususiy sherikligi uzoq muddatli, samarali va ikki tomon uchun ham foydali hisoblanadi. Quyidagi jadvalda davlat va xususiy sherik uchun foya va ustunliklar berilgan.

Davlat uchun	Xususiy sherik uchun
Ijtimoiy ahamiyatli infratuzilma loyihibarini amalga oshirish imkoniyati	DXSH obyektidan daromad olish, xizmat (tovar)lar kafolatlangan bozorning mavjudligi
Xususiy investor bilan xavf-xatarlarni bo‘lishish	Xatarlarni davlat bilan bo‘lishish
Xususiy sektor tomonidan taqdim etilgan xizmatlar sifati talabga mos kelmasa, to‘lovlarni kamaytirish imkoniyati	Davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar
Xususiy sektoring boshqaruvin intellektual kapitalini jalb qilish	Qarzni moliyalashtirishga jalb qilish imkoniyati
Obyektni ishlatish uchun byudjet xarajatlarining mavjud emasligi, byudjet yukini kamaytirish	Loyiha xarajatlarini davlat bilan bo‘lishish

Demak, davlat, xususiy sherikligining bir qator afzallikkari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihibar amalga oshiriladi; davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi resurslar birlashib, mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi; qo‘shimcha manbalar jalb etilishi natijasida davlat bilan xo‘jalik munosabatlari shakllanadi; davlat ortiqcha xarajatlarsiz biron-bir faoliyat va xizmatni yo‘lga qo‘yadi.

Davlat-xususiy sheriklik, asosan, ijtimoiy, ya’ni maktabgacha ta’lim, umumiyligini va oliy ta’lim hamda sog‘liqni saqlash sohalari, uy-joy communal xo‘jaligi, avtomobil yo‘llari qurilishi va elektr ta’minoti tarmoqlaridagi infratuzilma loyihibarini ro‘yobga chiqarishda keng qo‘llaniladi.

So‘nggi 30 yilda 130 dan ortiq mamlakatda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi faol joriy etilayotgani kuzatilmoxda. Juhon banki ma’lumotiga ko‘ra, mazkur mexanizm yordamida infratuzilma loyihibariga xususiy investitsiyalarning qariyb 15-20 foizi jalb qilinayapti.

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim doirasida xususiy sheriklarga quyidagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash turlari taqdim etilishi mumkin:

- Subsidiyalar, shu jumladan, xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta’minlashga yo‘naltiriladigan subsidiyalar;

- Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aktivlar va mol-mulk tarzidagi qo‘yilmalar;

- Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning(ishlarning, xizmatlarning) muayyan

miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi byudjetlari tizimining byudjet mablag'lari;

- Byudjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish;
- O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari;
- Soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar;
- Boshqa kafolatlar va kompensatsiyalar.

O'zbekiston hukumati ijtimoiy, transport va kommunikatsiya infratuzilmasi qurilishi va modernizatsiyasiga jalb qilish kabi ijtimoiy muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha faol harakat qilib kelmoqda.

Tadqiqotdagi nazariy tahlil umumiylididan xususiylikka qarab amalga oshirilgan: konsessiya davlat va xususiy sektor hamkorligidan kelib chiqqan holda ko'rib chiqiladi va u o'z navbatida aralash iqtisodiyot nazariyasining asosiy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday yondashuv zamonaviy aralash iqtisodiyot aloqalarining murakkablashuvi va liberalizasiya jarayonlaridagi konsession munosabatlarining muhimligi haqidagi nazariy farazni tasdiqlash imkonini beradi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, ilmiy adabiyotlarda hali konsession faoliyatning iqtisodiy muammolariga, ayniqsa, tabiiy monopoliya va infratuzilma tarmoqlarida yetarlicha e'tibor berilmayapti.

### Xulosa va takliflar

Yuqorida tadqiqotimizdan mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik sohasini rivojlantirishda qonunchilik bazasini mustahkamlashda tender savdolarini o'tkazishda, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tuzish va boshqarishda alohida e'tibor berilsa, sohada amalga oshirilayotgan loyihalarimizning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi degan xulosalaga kelindi.

Mavzu tahlil qilinib kamchiliklar o'rganilish asnosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

➤ davlat xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirida qonunchilik bazasini mustahkamlashimiz kerak masalan talim sohasida davlat xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishda qonun hali qabul qilinmagan;

➤ mamlakatlar bo'ylab tanlangan kontsessiyalarga turli xil yondashuvlar tufayli kontsessiyalarni joriy etish va duch keladigan muammolar;

➤ davlat xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirida ishonchli sherik topishning qiyinligi;

➤ loyihalar bo'yicha tender savdolari o'tkazishda ishtiroychilarining (raqobatchilarni) kamligi yoki deyarli yo'qligi;

➤ davlat xususiy sheriklik loyihalarini tuzish va boshqarish bilan shug'ullanuvchilar maqsadlarini strategik nuqtai nazardan yondasha olmayotganligi va loyihalarida innovatsion yondashuvlardan foydalana olmayotganligi;

➤ davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda loyihaga o'zgartirish kiritilganda katta xarajat talab etishi;

➤ loyihalarga dastlabki tender jarayoni qancha ko'p davom etsa tender xarajatlari kutilganidan ko'p bo'lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi 2019 yil 10 may O'RQ-537-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4329270>
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi Qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida"gi 2021 yil 22 yanvar O'RQ-669-son Qonuni. <https://lex.uz/pdfs/5235535>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risi"gi 2022 yil 08 apreldagi PF-101-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5947775>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 20 oktyabrda PQ-3980-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4007891>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 13 dekabrdagi 1009-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4104705>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 2020 yil 26 apreldagi 259-son qarori. <https://lex.uz/docs/4798603>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 7 iyundagi qarori. <https://lex.uz/docs/5446729>
9. Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: форми, проекты, риски. - М.: Наука, 2005.
10. Варнавский В.Г. Концессионный механизм партнерства государства и частного сектора. М.: МОНФ, Институт мировой экономики и международных отношений РАН, 2008.
11. Максимов В.В. Государственно-частное партнерство в транспортной инфраструктуре: критерии оценки концессионных конкурсов / В.В. Максимов. – М.: Алпина Паблишерз, 2010.
12. Евенко В.В. Государственно-частное партнёрство: альянс скрипетра и капитала. В.В. Евенко, В.Ю. Солдатенков // Вестник Брянского государственного технического университета, № 3, 2008.